

Dekabr, 2024-Yil

O'ZBEKISTONDA AJRIM VA ULARNING SALBIY OQIBATLARI

Ikromova Sohiba Suyun qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.

sohibaikromova175@gmail.com

Xusanova Xayriniso Tayirovna

Ilmiy rahbar: "Sotsiologiya" fanlari doktori(DSc), dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14477705>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy ajrimlarning sabablari, salbiy oqibatlari farzandlarga ta'siri va ularning oldini olish ishlari, O'zbekistonda ajrim va nikoh statistikasi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ajrimlar, oila, nikoh, er va xotin, bolalar, ijtimoiy-iqtisodiy, O'zbekiston.

DISASTER AND ITS NEGATIVE CONSEQUENCES IN UZBEKISTAN

Abstract. This article discusses the causes of family divorces, their negative consequences on children, and ways to prevent them, as well as divorce and marriage statistics in Uzbekistan.

Keywords: divorce, family, marriage, husband and wife, children, socio-economics, Uzbekistan.

ДИСКРИМИНАЦИЯ И ИХ НЕГАТИВНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье описаны причины семейных разводов, их негативное влияние на детей и их профилактика, статистика разводов и браков в Узбекистане.

Ключевые слова: разводы, семья, брак, муж и жена, дети, социально-экономическая ситуация, Узбекистан.

O'zbekistonda ajrimlar soni oxirgi yillarda oshib borayotgani ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ajrimlarning sabablaridan biri — oila a'zolari o'rtasidagi muvofiqlik va tushunmovchiliklarning hal etilmasligi. Ayniqsa, yoshlar orasida turmushga tayyorgarlik darajasi pastligi, iqtisodiy qiyinchiliklar ajrimlarga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, moddiy qiyinchiliklar, uy-joy muammolari va ishsizlik kabi omillar ajrimlarning ortishiga turtki bo'lmoqda[1].

Ajrimga sabab bo'luvchi omillar asosan 5 tadan iborat;

1. Er o'z vazifasini bajarmasligi.
2. Ayollar o'z vazifasini bajarmasligi.
3. Muomila ma'daniyatining yo'qligi.

4. Qaynona-kelin kelishmovchiliklari.
5. Yigit-qizlarning oilaga tayyor emasligi.

Ajrim oilaning barcha a'zolariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Asosan farzandlarga, ayollarga hamda jamiyatga.

Farzandlarga ta'siri: Ajrim bolalarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Bolalarda stress, xavotir va o'ziga ishonchsizlikni kuchaytiradi. Bulardan tashqari bolarning tarbiyasida ham nuqsonlar kuzatiladi.

Ayollarga ta'siri: Ajrimdan keyin ayollar ba'zida moddiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelishadi. Keyinchalik ular yangi oila qurish yoki mustaqil hayotda ko'plab muammolarga duch kelishlari mumkin.

Jamiyatga ta'siri: Ajrimlar ko'paygan sari jamiyatda ijtimoiy barqarorlik buziladi.

Oilalarning buzilishi iqtisodiy-ijtimoiy ko'makka ehtiyoj oshadi. Bu esa davlatga qo'shimcha yuk yuklaydi.

2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston aholisi 36,8 mln kishiga yetgan. Shundan 18,3 mln nafarini ayollar, 18,5 mln nafarini erkaklar tashkil etadi. 18,8 mln kishi shaharlarda, 18 mln kishi qishloqlarda yashaydi.

Ma'lumotda keltirilishicha, 2023 yilda O'zbekistonda qayd etilgan nikohlar soni 283,8 mingni tashkil qilgan. Bu raqam 2022 yilda 296,7 ming bo'lgan.

Respublikada keyingi yillarda ajralishlar soni sezilarli ko'paygan. Misol uchun, 2021 yilda 39,3 ming nikohdan ajralish qayd etilgan bo'lsa, bu raqam 2022 yilda 48,7 mingni, 2023 yilda esa 49,2 mingni tashkil qilgan.

Shuningdek, Samarqand (4 mln 208,5 ming kishi), Farg'ona (4 mln 61,5 ming kishi) hamda Andijon (3 mln 394,4 ming kishi) viloyatlari aholisi eng ko'p bo'lgan hududlar sifatida qayd etilgan. Sirdaryo (914 ming kishi), Navoiy (1 mln 75,3 ming kishi) va Jizzax (1 mln 507,4 ming kishi) viloyatlari esa aholisi eng kam hududlar hisoblanadi[2].

Turli mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar va statistik kursatkichlar guvohlik berishicha, ajralishlarning 20% ga yaqini ikki yildan kam davr mobaynida mavjud bo'lgan oilalar hissasiga to'g'ri keladi.[3]

Hozirgi kunda O'zbekistonda oilaviy ajrim dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ajrashishlarning sabablari o'rganilib, yoshi katta onaxonlar, mahalla faollari muammolarni hal etish yo'llarini izlashlari lozim. Chunki Islom dinida har bir buzilgan nikoh uchun arshi a'lo larzaga kelishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Oiladagi bolalarning tirik yetim bo'lib qolishi, jamiyatda tirik yetimlar sonining oshishi taraqqiyotga salbiy ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi.

Dekabr, 2024-Yil

Yana ta'kidlash joiz-ki, farzandini har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda ota-ona zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar", deb ta'kidlangan[4].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oilaviy ajrim yoqasidagi oilalarni barvaqt aniqlasak va ularga, ularning farzandlariga o'z vaqtida yordam ko'rsata olsak, ko'p oilaviy ajrimlarning oldini olgan bo'lamiz. Sog'lom va mustahkam oila – sog'lom kelajak poydevori. Oilada sog'lom ma'naviy muhit, oila a'zolarida o'zaro hurmat-ehtirom ruhini yaratish, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarimizni saqlab qolish, kelajak avlodlarimiz ongiga sog'lom turmush tarzini singdirish asosiy vazifamiz ekanligini yoddan chiqarmasligimiz lozim. Ajrimlarning sonini kamaytirish yoshlarni nikohga tayyorlash, oilada o'zaro hurmatni, bir birini tushinishni muomala ma'daniyatini shakllantirish, psixologik yordam va maslahatlar berish ishlarini amalga oshirish zarur.

REFERENCES

1. Madiyeva R. Oilalarni saqlab qolishga har birimiz ma'sulmiz. Internet ma'lumoti // [https://yuz.uz/news/ijtimoiy hayot\(17.01.2022\)](https://yuz.uz/news/ijtimoiy_hayot(17.01.2022)).
2. Statistika agentligi xabarlar. // <https://stat.uz/20.05.2023>.
3. Oila va gender sotsiologiyasi o'quv qo'llanma.
4. (X.T.Xusanova , D.T.Nematova).
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent,2023.
6. NURQULOV B. YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH OMILLARI //UzMU xabarlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.3. 1. – C. 190-193.
7. Nurqulov B. G. THE MAIN THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF POLITICAL SOCIALIZATION //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 426-431.
8. Nurqulov B. G. SAYLOV VA UNING YOSHLAR FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 432-436.
9. Нуркулов Б., Равшанова О. JORJ GERBERT MIDNING RAMZIY INTERAKSIONIZM NAZARIYASI //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 402-405.
10. Nurqulov B. et al. PITRIM SOROKINNING "SOTSIAL VA MADANIY DINAMIKA" ASARI //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 289-291.

Dekabr, 2024-Yil

11. Panjiyeva Z. et al. RAZMIY INTERAKTSIONIZM TAMOYILLARI //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 292-295.
12. A'ZAMXONOV S. OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLIHLARNI TASHKIL ETISH //News of UzMU journal. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. 1. – C. 63-66
13. Saidabzalkhan A. MODERN CONCEPTS OF HUMAN CAPITA MEASUREMENT <https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527> <https://zenodo.org/records/8003552#>. – 2023.
14. A'zamxonov S. X. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2022. – T. 2. – №. 22. – C. 381-386.
15. Аъзамхонов С. TALABALAR MUSTAQIL TA'LIM OLIHLINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2024. – №. SI-1.
16. Azamkhanov S. SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF MODERN FORMS OF ORGANIZING STUDENTS'INDEPENDENT WORK //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5.
17. Ilxomov, Umrbek, and Parizod Nasirdinova. "IRVING GOFFMANNING DRAMATURGIYASI." NRJ 1.3 (2024): 239-245.
18. ILXOMOV, Umrbek. "SOTSIAL MOBILLIK YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATNING OMILI SIFATIDA." News of UzMU journal 1.1.2. 1 (2024): 110-114.
19. Ilxomov, U. U., and P. Sh Nasirdinova. "UMUMIY-O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH METODI VA BITIRUVCHI YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRILGANLIGI DOLZARB MASALA." Academic research in educational sciences 3 (2024): 252-256.
20. Ilxomov U. U. YOSHLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOLARINING INDEKATORI //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 263-268.
21. Ilxomov U. U. YOSHLAR ISHSIZLIGI IJTIMOIIY MUAMMO SIFATIDA //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 257-262